

MAHALLIY OLIMLAR TADQIQOTLARIDA “DYURAND CHIZIG‘I” MUAMMOSINI O‘RGANILISHI

Sardor Rahimov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada afg‘on mojarosining kelib chiqish sabablari, uning Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalaridagi xavfsizlik va siyosiy barqarorlikka ta‘siri hamda Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi tarixiy chegara nizolari yoritilgan. Xususan, ushbu masalalarni tadqiq etgan mahalliy olimlarning ilmiy merosi, ularning faoliyati va qarashlari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, Dyurand chizig‘i, “Pashtuniston” masalasi va afg‘on muammosining mintaqaviy hamda xalqaro siyosatdagi o‘rni bo‘yicha ilgari surilgan nazariy yondashuvlar va tahliliy xulosalar batafsil bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *“Dyurand chizig‘i”, “Tolibon” harakati, “Savr inqilobi”, Pashtuniston, Afg‘on dualizmi, Afg‘on Turkistoni.*

ABSTRACT.

This article examines the causes of the Afghan conflict, its impact on security and political stability in the Central and South Asian regions, and the historical border disputes between Afghanistan and Pakistan. In particular, the scientific heritage of local scholars who studied these issues, their activities and views are analyzed in detail. Also, the theoretical approaches and analytical conclusions put forward on the Durand Line, the issue of "Pashtunistan" and the role of the Afghan problem in regional and international politics are described in detail.

Keywords: *"Durand Line", "Taliban" movement, "Saur Revolution", Pashtunistan, Afghan dualism, Afghan Turkistan.*

KIRISH

Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi chegara muammosining mintaqaviy va global xavfsizlikka, mintaqalararo hamkorlik istiqboliga ta‘siri yuqori bo‘lganligi sababli ushbu mojaro har doim tadqiqotchilar, mutaxassislar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilib kelingan. Jumladan, ushbu muammo bir qator yirik mahalliy olimlar tadqiqotlarining asosiy mavzusi bo‘lib, chuqur tadqiq etilgan.

XX asr oxiridan boshlab Afg‘onistondagi beqarorlik, ichki qurolli to‘qnashuvlar, etnodiniy ziddiyatlar va tashqi kuchlarning faol aralashuvi mamlakatni nafaqat Janubiy Osiyo, balki Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi uchun ham strategik hududga aylantirdi. Shu sababli afg‘on muammosini turli nuqtayi nazardan chuqur

o'rgangan mahalliy olimlarning ilmiy merosi, tarixiy manbalarga tayanilgan tahlillari va siyosiy jarayonlarga oid amaliy kuzatuvlari bugungi ilmiy izlanishlar uchun bebaho ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda "Dyurand chizig'i" masalasi, "Pashtuniston" g'oyasi, "Tolibon" harakatini shakllanishi va rivojlanishi, Afg'oniston-Pokiston munosabatlaridagi doimiy keskinlik, shuningdek, yirik davlatlarning ushbu hududdagi geosiyosiy manfaatlari batafsil yoritilgan.

MUHOKAMA

Afg'on muammosi va Afg'onistondagi harbiy-siyosiy, etnosiyosiy vaziyat, shuningdek, unga tashqi kuchlarning ta'siri masalalari bo'yicha yirik tadqiqotlar olib borgan mahalliy afg'onshunos olim, siyosiy fanlar doktori, professor Abdusamat Haydarov hisoblanadi. A.Haydarov uzoq yillar davomida Eron va Afg'onistonda diplomatik faoliyat olib borgan. Jumladan, 1996-1999-yillarda O'zbekiston Respublikasining Eron Islom Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi, 2009-2014-yillari BMTning Afg'onistonga ko'maklashish missiyasi bo'yicha maxsus missiyasi (UNAMA)ning Janubiy mintaqaviy idorasi rahbari, 2014-2016-yillarda esa UNAMAning siyosiy masalalar bo'yicha bo'limi boshlig'i lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan.

A.Haydarov siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan "*Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatida Markaziy Osiyo*" mavzusidagi dissertatsiyasida XX asr oxirlarida Afg'onistondagi beqaror vaziyat, afg'on omilining Eron-Pokiston munosabatlariga hamda Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlar jarayoniga ta'sirini batafsil tahlil etgan. Afg'onshunos olim mazkur dissertatsiyada bizning tadqiqotimizga oid bo'lgan Afg'oniston-Pokiston chegarasidagi vaziyat, jumladan, "Tolibon" harakatining paydo bo'lish sabablari xususida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Masalan, muallif dissertatsiyada "80-yillarning oxiridan boshlab Pokiston maxsus xizmatlari orqali AQSh tomonidan moliyalashtirilgan, Pokiston madrasasini tamomlagan afg'onistonlik bitiruvchilar hisoblangan "Tolibon" harakati 1994-yil bahorida Afg'onistonning janubiy viloyatlarida shakllangan"[1], deb yozadi.

Shuningdek, afg'onshunos olim bir qator ilmiy maqolalarida Afg'onistondagi etnodiniy va ichki siyosiy vaziyat, xususan, pashtunlar muammosi[2], Afg'oniston-Pokiston chegarasida vujudga kelgan ayrim radikal diniy tashkilotlarning Afg'oniston va mintaqa xavfsizligiga ta'siri[3] masalalari haqida qiziqarli va tahliliy ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

O'zbekistondagi afg'onshunoslik maktabining yirik namoyandasi, "O'zbekiston-Afg'oniston" do'stlik jamiyati raisi, filologiya fanlari doktori, professor Abdurahim Mannonov hisoblanadi. A.Mannonovning mehnat faoliyati Afg'oniston bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, 1965-yil Afg'onistonning Kobul universiteti

tinglovchisi, 1971-1974-yillarda Afg'onistonda pashtu tilidan tarjimon, 1977 va 1983-yillarda esa xizmat safarida bo'lgan. U 2018-yildan e'tiboran O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan "O'zbekiston-Afg'oniston" do'stlik jamiyati raisi sanaladi. A.Mannonovning o'zi ta'kidlaganidek: "O'zbekiston-Afg'oniston" do'stlik jamiyatining ochilishi tarixiy voqea bo'lib, shu vaqtga qadar ikki davlatlar tarixida Afg'oniston bilan do'stlik aloqalarini o'rnatishga yordamlashadigan jamiyat mavjud bo'lmagan edi[4]. Darhaqiqat, ushbu jamiyat tashkil etilishi ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash, fan-ta'lim sohalarida hamkorlikni yo'lga qo'yishda imkoniyatlarni yanada kengaytirdi. Shu bilan birga, o'zbek va afg'on xalqlari tarixiy merosini saqlash hamda unga ilmiy jihatdan e'tibor qaratish, o'zbek tilidagi ilmiy-badiiy adabiyotlarni Afg'onistonga yetkazish va tarqatishni tashkil etish kabi vazifalar mazkur jamiyat tomonidan amalga oshiriladi.

Sharqshunos-afg'onshunos olimning pashtu tili, pashtunlar hayoti va faoliyati haqidagi ilmiy tadqiqotlari yosh afg'onshunos tadqiqotchilar uchun birlamchi manbaalar bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, bizning tadqiqot mavzuyimiz uchun ham afg'onshunos olimning ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, A.Mannonov "Sharqshunoslik masalalari" nomli maqolalar to'plamida Afg'oniston atamasining pashtunlar o'lkasi sifatida foydalanilganiga ishora qilib quyidagicha yozadi: "XII asrga oid manbalarda "Afg'oniston" atamasini, dastlab, hozirgi geografik hududga ega bo'lgan mamlakat ma'nosida emas, balki bugungi Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi mushtarak chegaraning ikki tomonida joylashgan Sulaymon tog'laridan to Hind daryosigacha ulanib ketgan hududlarda yashovchi "afg'onlar (pashtunlar) o'lkasi" ma'nosida ishlatilgan. Afg'onistonning hozirgi geografik hududi XIX asrning oxiriga kelib qaror topdi va uning shimoliy, shimoli-g'arbiy va sharqiy hududlarida qadim-qadimdan yonma-yon yashab kelgan o'nlab xalq va elatlar ham pashtunlar qatori "Afg'oniston" nomli mamlakatning aholisiga aylandilar"[5]. Bundan kelib chiqadiki, XII asrda "Afg'oniston" deganda pashtun (afg'on) qabilalari yashaydigan hudud nazarda tutilgan va u Sulaymon tog'laridan Hind daryosigacha cho'zilgan bo'lib, bugungi Afg'oniston-Pokiston chegarasini ham qamrab olgan edi. Bu esa etnik birlik – siyosiy birlikdan oldin shakllanganini anglatadi, ya'ni "afg'on" tushunchasi, avvalo, etnonim sifatida mavjud bo'lgan. U ma'lum bir xalqni emas, balki bir necha pashtun qabilalarining umumiy nomini ifodalagan.

Afg'onshunos olimlar orasida yuridik fanlari doktori, professor Inomjon Boboqulov ham alohida ajralib turadi. I.Boboqulov "*Afg'oniston: lug'at-ma'lumotnoma*" kitobida[6] Afg'onistonga doir siyosiy, harbiy, huquqiy atamalarga

batafsil izoh berilgan. Xususan, muallif bizning tadqiqotimizga oid “Dyurand chizig‘i” va “Pashtuniston” to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tgan. Bundan tashqari, afg‘on jamiyatida katta mavqe va siyosiy kuchga ega bo‘lgan shaxslar haqida ham qimmatli ma‘lumotlar o‘rin olgan ushbu lug‘at soha mutaxassislari uchun nodir qo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda.

Afg‘oniston va Pokiston munosabatlarini tadqiq etgan olimlardan siyosiy fanlar nomzodi, dotsent Shoislom Akmalovning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Sh.Akmalov 1975-1979-yillar Afg‘onistonda tarjimon sifatida, 1989-1991-yillarda esa SSSRning Mozori Sharif shahridagi Bosh konsulxonasida attashe lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. 2002-yilda “*Zamonaviy Pokiston-Eron munosabatlarida afg‘on inqirozini hal qilish muammosi*” mavzusida siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun nomzodlik dissertatsiyani himoya qilgan. Sh.Akmalov mazkur dissertatsiyasida Pokiston va Eron Islom Respublikalarining Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat bo‘yicha pozitsiyasi va olib borayotgan siyosatini chuqur tahlil etgan holda afg‘on muammosiga nisbatan ushbu davlatlarning yondashuvlaridagi o‘zaro yaqinlik, ba‘zi o‘rinlarda esa manfaatlar to‘qnashuvini ko‘rish mumkin ekanligini yozadi: “Islomobod “Tolibon”ni Afg‘oniston va Markaziy Osiyodagi geostrategik maqsadlariga erishishning asosiy vositasi sifatida ko‘rdi. Tehron ham o‘z navbatida, Pokistonning bunday siyosatini nafaqat Afg‘oniston, balki Markaziy Osiyo davlatlari manfaatlariga asosiy xavf sifatida baholadi. Aynan shu omil Eronning Rossiya va Hindiston bilan birgalikda Pokiston rejalarini amalga oshirish yo‘lidagi asosiy to‘siq bo‘luvchi Shimoliy Alyansni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashini ta‘minladi”[7]. Binobarin, 1990-yillarda yuzaga kelgan geosiyosiy raqobat sharoitida Afg‘onistondagi voqea-hodisalar mazkur mamlakatda tashqi kuchlar ta‘siri ortib borganini tasdiqladi.

Afg‘onshunos olim “*Afg‘oniston chorrahada: muammolar va istiqbollar*” nomli kitobida esa tadqiqotimizga doir e‘tiborga molik tahlillarni keltiradi. Xossatan, muallif “Pokistonning Afg‘onistonga nisbatan siyosati” to‘g‘risida qarashlarini quyidagicha bayon etadi: “Pashtunlar ayirmachilik harakatining asosiy sababi 1893-yilda Afg‘oniston qiroli Abdurahmon va Britaniya Hindistoni Tashqi ishlar bo‘yicha kotibi Mortimer Dyurand o‘rtasida tuzilgan 2640 km uzunlikdagi “Dyurand chizig‘i” masalasidir. Ushbu chegara muammosi 1949-yildan boshlab Afg‘oniston-Pokiston o‘rtasidagi hududiy muammoga aylandi. Alohida ta‘kidlash joizki, “Dyurand chizig‘i”ni Afg‘onistonda na qiro, na Xalq Demokratik Partiyasi (XDP), na “Tolibon” va na Hamid Karzay davridagi birorta hukumat tan olmadi”[8]. Haqiqatan ham, o‘tgan davr mobaynida Afg‘onistonda bir necha bor hokimiyatlar almashinuvi

kuzatilgan bo'lsa-da, ushbu pozitsiya bugungi kungacha mutlaqo o'zgarishsiz qolayotganini alohida qayd etish lozim.

Afg'onshunoslik sohasidagi muhim adabiyotlardan biri sanalgan "O'zbekiston-Afg'oniston: o'tmishdan hozirgacha" nomli monografiyada[9] Sh.Akmalov O'zbekiston-Afg'oniston munosabatlari evolyutsiyasi va mamlakatlar o'rtasidagi tarixiy aloqalar to'g'risida chuqur tadqiqot xulosalarini yozib, Afg'on muammosini hal etish bo'yicha rasmiy Toshkent tashabbuslari hamda O'zbekiston tashqi siyosatida transafg'on loyihalari haqida mufassal ma'lumotlar keltiradi. Shu bilan birga, muallif ushbu kitobida O'zbekiston va "Tolibon" munosabatlarining hozirgi holati bo'yicha teran tahliliy qarashlarini keltiradi. Buning barobarida afg'onshunos olimning kitobida Pokiston-Tolibon aloqalaridagi muammolar, Pokiston xavfsizligiga tahdidlar yuzasidan bildirgan qimmatli fikrlari ham o'rin olgan. Hozirgi kunda esa Sh.Akmalov "Pokiston va Hindiston munosabatlarida afg'on omili" mavzusida ilmiy tadqiqot olib bormoqda.

Afg'onistondagi beqaror siyosiy vaziyat va uni Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarga ta'siri xususida ilmiy izlanishlar olib borgan olima siyosiy fanlar doktori, professor Nihola To'laganovadir. N.To'laganova 2006-yil "*Markaziy Osiyodagi yangi xavfsizlik tizimi shakllanishi sharoitida afg'on mojarosi va uning oqibatlari*"[10] mavzusida siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyani himoya qilgan. Olima mazkur dissertatsiyasida afg'on mojarosini paydo bo'lishi va rivojlanishi, uning qo'shni mintaqalarga ta'siri haqida o'zining tahliliy fikr-mulohazalarini hamda Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosatida afg'on mojarosi va ularning mintaqada yangi xavfsizlik tizimini shakllantirishdagi yondashuvlari to'g'risida ilmiy qarashlarini yozadi.

N.To'laganova "*Markaziy Osiyodagi zamonaviy xalqaro munosabatlarda afg'on omili*" nomli monografiyasida afg'on mojarosi haqida yozar ekan, uni 1970-yillar oxiridagi ikki qutbli dunyo qarama-qarshiligi mahsuli sifatida talqin etadi. Shuningdek, Afg'onistonda "Tolibon" harakati, global va mintaqaviy aktor bo'lgan davlatlar: AQSh, Xitoy, Rossiya Eron va Pokiston tashqi siyosatida afg'on vektori xususida to'xtalib, O'zbekistonning afg'on mojarosini hal qilish jarayonlaridagi ishtiroki haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. E'tiborli jihati, muallif makzur monografik tadqiqotida bizning mavzumizga oid quyidagi tahlillarini keltiradi: "Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlarning eng bahsli masalasi shuki, pashtunlar yashaydigan chegara hududlari maqomi to'liq belgilanmagan. Pokiston va Afg'onistonni hatto chegara ham emas, balki "Dyurand chizig'i" ajratib turadi. Afg'onistonning birorta hukumati inglizlarning Hindistondan chiqib ketishi bilan uni to'liq davlat chegarasi sifatida tan olmadi"[11].

Afgʻoniston muammosi, uning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga taʼsiriga doir izchil izlanishlar olib borgan afgʻonshunos olim Suhrob Boʻronovning tadqiqotlari va ularda keltirilgan ilmiy-tahliliy fikr-mulohazalar nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumladan, olim “Dyurand chizigʻi”ni Afgʻoniston muammosini hal etishning asosiy “kaliti” deb baholashi hamda bu chiziqni “Afgʻon Pandora qutisi” degan atama bilan izohlashi boʻlgʻusi afgʻonshunoslik tadqiqotlari uchun yangi ufqlarni ochib berdi. Ayniqsa, u Afgʻonistonga oid siyosiy tadqiqotlarda yangi “Afgʻon dualizmi” nazariyasini ishlab chiqib, uni ikki guruhga ajratadi: “Afgʻon milliy dualizmi” va “Afgʻon mintaqaviy dualizmi”. Muallif “Afgʻon mintaqaviy dualizmi” nazariyasida Afgʻonistonni joʻgʻrofiy jihatdan Markaziy Osiyo yoki Janubiy Osiyoning bir qismi ekanligi bilan bogʻliq dualistik bahs-munozaralarni oʻrtaga tashlaydi va ularning har birini asoslab beradi. Uning xulosasiga koʻra, Afgʻoniston Markaziy yoki Janubiy Osiyoning bir qismi emas, balki ikki mintaqani oʻzaro bogʻlab turuvchi “koʻprik” boʻlishi lozim.

Shuningdek, S.Boʻronov oʻz ilmiy izlanishlarida “Dyurand chizigʻi” boʻyicha Afgʻoniston va Pokiston davlatlarining pozitsiyasini oʻzaro tahlil etgan holda muammoni bartaraf etilishi Afgʻonistondagi mustahkam tinchlikka zamin yaratadi, deb xulosa qiladi. Bunday fikr-mulohazalar olimning *“Afgʻonistonda tinchlik va barqarorlik oʻrnatish jarayonlarida Oʻzbekiston geosiyosati”* nomli monografiyasida[12] ham oʻz aksini topgan. Pokistonning Afgʻonistondagi siyosiy vaziyatga taʼsiri, pashtunlar bilan bogʻliq etnohududiy muammolar, “Tolibon” harakatining Afgʻoniston siyosiy sahnasida paydo boʻlishi sabablarini chuqur oʻrganishda aynan mazkur monografik tadqiqotda keltirilgan maʼlumotlar katta oʻrin egallaydi. Qolaversa, afgʻonshunos olim *“Dyurand chizigʻi – afgʻon muammosining kaliti”*[13] nomli ilmiy maqolasida “Dyurand chizigʻi” muammosining ildizlarini atroflicha yoritib, ushbu chiziqning tarixiy, etnik va geosiyosiy jihatlarini chuqur tahlil etadi. Alohida taʼkidlash kerakki, S.Boʻronov “Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga “Tolibon” omilining taʼsiri” nomli monografiyasi[14] afgʻonshunoslik sohasida yangi nazariya va yondashuvlarni taklif etilgan muhim manba sanaladi. Shuningdek, mazkur ilmiy asar Afgʻonistondagi “Tolibon” harakatini shakllanishi, yirik va mintaqaviy davlatlar siyosatida ushbu harakatning tutgan oʻrni har tomonlama tahlil qilingan yirik tadqiqotdir. S.Boʻronov ushbu kitobida “Tolibon 1.0” va “Tolibon 2.0” hukumatlari oʻrtasidagi farqlar va oʻxshashliklar, “Dyurand chizigʻi” oʻrnatilishi va “Pashtuniston” omilining Afgʻoniston-Pokiston munosabatlariga taʼsiri, ikki mamlakat oʻrtasidagi aloqalarning bugungi kundagi holati, terrorizm va ekstremizm tahdidining mintaqaviy xavfsizlikka taʼsiri toʻgʻrisida mufassal maʼlumotlar keltiradi.

Afgʻoniston va Pokiston oʻrtasidagi chegara muammolarining mintaqaviy xavfsizlikka taʼsiri, Afgʻonistondagi harbiy-siyosiy vaziyat hamda chegara xavfsizligi borasida ham mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan boʻlib, ular orasida yuridik fanlari nomzodi, dotsent Poʻlat Makkamboyevning ilmiy izlanishlari alohida eʼtiborga molikdir. Olimning Afgʻonistonda yuz berayotgan siyosiy jarayonlar, beqaror vaziyat hamda uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar xavfsizligiga taʼsiri haqida ilmiy izlanishlari bizning tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. P.Makkamboyev *“Afgʻonistondagi harbiy-siyosiy vaziyat va uning Markaziy Osiyo davlatlarining chegara xavfsizligiga taʼsiri”* nomli monografiyasida Afgʻoniston davlati tashkil etilishidan to XXI asrning boshlarigacha boʻlgan tarixiy voqea-hodisalar, Afgʻoniston siyosiy hayotidagi turli oʻzgarishlar, xossatan, 1978-yilgi “Aprel inqilobi” (Manbalarda “Savr inqilobi” deb ham ataluvchi mazkur inqilob, aslida, 27-apreldan 28-aprelga oʻtar kechasi roʻy bergan. Vaholanki, “Savr” - Afgʻonistonda foydalaniluvchi yillik taqvimning 2-oyi boʻlib, 21-martdan 20-aprelga boʻlgan muddatga toʻgʻri keladi.) va SSSR qoʻshinlarini Afgʻonistonga kiritilishi va olib chiqib ketilishi haqida atroflicha uchraydi. Muallif kitobda afgʻon mojarosini keskinlashuvi hamda uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi taʼsiri, jumladan, Tojikistondagi “birodarkushlik urushi”, Afgʻonistonda “Tolibon” boshqaruvi, Afgʻoniston boʻyicha Bonn va London kelishuvlari toʻgʻrisida ham oʻzining tahliliy qarashlarini yozgan.

Shuningdek, muallif mazkur kitobida “Dyurand chizigʻi”ni yaratilishiga asos boʻlgan bitim imzolanishi haqida quyidagicha yozadi: “Pashtun qabilalarini harbiy kuch vositasida taʼsir doirasiga olish mumkin emasligiga ishonch hosil qilgan Britaniya Vazirlar Mahkamasi Afgʻoniston amiri bilan vaziyatni afgʻon-hind chegarasini delimitatsiya qilish boʻyicha diplomatik muzokaralar orqali hal etishga qaror qiladi. Ingliz mustamlakachi rejimi tomonidan olib borilgan kuchli siyosiy bosim ostida Amir Abdurahmon 1893-yil 12-noyabrda Dyurand taklif qilgan shartnoma matnini imzolashga majbur boʻladi”[15].

Afgʻonistonda davlatchilik asoslari vujudga kelishi va shakllanishini siyosiy fanlar boʻyicha falsafa doktori (PhD) Rustam Rashidov tadqiq etgan. R.Rashidov oʻzining *“Afgʻonistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon”* nomli monografik tadqiqotida Afgʻonistonning Durroniylar davlati tashkil etilishidan 2001-yilgacha boʻlgan tarixdagi muhim voqeliklarni tahlil qilgan. Bizning tadqiqotimizga doir oʻz tahlillarini quyidagicha yozadi: “Dyurand bitimini inglizlar tomonidan olib borilgan afgʻon davlati ichki ishlariga aralashish siyosatining eng yuqori choʻqqisi sifatida taʼkidlab koʻrsatish mumkin. Shunisi eʼtiborliki, Dyurand bitimini uni majburan imzolagan afgʻon davlati hukmdori Abdurahmondan soʻng birorta ham

afg'on davlatining rahbari yoki hokimiyatni boshqargan hukumat tan olmagan"[16]. Ushbu yondashuv afg'on rahbarlari orasida hamon saqlanib qolmoqda va mazkur omil bugungi kunda ham Afg'oniston-Pokiston munosabatlarida asosiy nizoli masalalardan biri sanaladi.

Shuningdek, R.Rashidov *"Afg'on davlatchiligi shakllanishiga xalqaro va mintaqaviy jarayonlarning ta'siri"* nomli dissertatsiyasining avtoreferatida Dyurand kelishuvi va undan ko'zlangan maqsadlar to'g'risida quyidagicha to'xtalib o'tadi: "1893-yilgi Dyurand bitimiga ko'ra, chegara chizig'ining o'ng tomonida qolgan Peshovar shahri, Vaziriston va pashtunlar istiqomat qiladigan bir qator hududlarga bo'lgan Afg'onistonning da'vosiga javoban Britaniya hukumati afg'on davlatini mamlakat shimolidagi hududlarni qo'shib olishni va u yerda o'z hokimiyatini mustahkam o'rnatishga undaganligi ma'lum bo'ladi". R.Rashidov inglizlar ushbu xatti-harakati bilan bir qator maqsadlarni ko'zlaganligi haqida yozar ekan, ulardan ikkitasi haqida ajratib ko'rsatadi. *"Birinchidan*, Chor Rossiyasi sarhadlarining Hindistondagi Britaniya mulklari bilan bevosita chegaradosh bo'lib qolishini oldini olishga ko'zlangan bo'lsa, *ikkinchidan*, Dyurand bitimi natijasida afg'on davlatidan ajratib olingan va Hindistondagi Britaniya mulklariga qo'shib yuborilgan hududlar uchun mamlakat shimolidagi yerlar (Afg'on Turkistoni yoki Janubiy Turkiston) o'ziga xos "badal" vazifasini o'tashi kerak edi. Dyurand bitimi natijasida Buyuk Britaniya tomonidan afg'on davlatidan ajratib olingan janubiy-sharqiy hududlar uchun mamlakat shimoli (Afg'on Turkistoni yoki Janubiy Turkiston)ni afg'on davlati tarkibiga qo'shishga undash va mazkur jarayonda ishtirok etish orqali o'sha davr ingliz hukumatining o'ziga xos siyosat yuritganligi dalillangan"[17]. Britaniya imperiyasi tomonidan aynan Afg'onistonning shimoli (Janubiy Turkiston yoki Afg'on Turkistoni) Rossiya imperiyasi "orbitasi"dan uzoqlashtirilib, Afg'oniston tarkibiga qo'shilishi uchun ko'maklashish hududiy almashinuv o'rnida qabul qilindi, ya'ni janubdagi hududlar Buyuk Britaniya nazoratiga o'tdi. Ma'lumot o'rnida R.Rashidov *"Geosiyosiy omil – Afg'onistondagi vaziyatga ta'sir etuvchi omil sifatida"* nomli ilmiy maqolasida[18] ham yirik kuch markazlari – AQSh, Rossiya va Xitoyning Afg'onistondagi geosiyosiy manfaatlari xususida batafsil to'xtalib o'tgan.

Pashtunlarni kelib chiqishi va millat sifatida shakllanishi, Afg'oniston davlatchiligida tutgan o'rni va roli, "Pashtuniston" davlatini tuzish g'oyasi, uning tarixi va uni amalga oshirishga bo'lgan urinishlar, shuningdek, bugungi kunda Afg'oniston-Pokiston munosabatlariga etnik omilning ta'siri xususida Obidjon Abdurahmonovning olib borgan tadqiqotlari ilmiy ishini boyitishda muhim manba bo'lib xizmat qildi. Jumladan, afg'onshunos olimning "Hozirgi Afg'oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlarning o'rnini" mavzusidagi doktorlik (PhD)

dissertatsiyasi[19] va “Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlar” nomli monografiyasi[20] afg‘onshunoslik sohasida pashtunlarni ilmiy jihatdan o‘rganishda yangicha yondashuv va qarashlarni taqdim etgani bilan ajralib turadi.

XULOSA

Umuman olganda, mahalliy olimlar tadqiqotlarida afg‘on mojarosiga oid ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Yuqorida nomlari ta’kidlangan bir qator ilmiy ishlarda Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi chegara muammosi qisman tadqiq etilgan, ammo aynan “Dyurand chizig‘i” muammosi va uning mintaqaviy hamda xalqaro xavfsizlikka ta’siri masalalari kengroq va chuqur o‘rganilmagan. Faqatgina S.Bo‘ronovning “Dyurand chizig‘i – afg‘on muammosining kaliti” deb nomlangan maqolasi, ma’lum ma’noda, ushbu muammoni yanada batafsilroq o‘rganishga chorlaydi, deb aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хайдаров А. (1996) Центральная Азия во внешней политике Исламской Республики Иран. Дисс. док. полит. наук. – Т.: – С.285.
2. Khaydarov A. (2004) Role of ethno-religious factor in stabilization of internal political situation in Afghanistan and its impact on Central Asia. K Santhanam, Ramakant Dwivedi. India and Central Asia. Advancing common interest. New Delhi. – P.291.
3. Хайдаров А. (2020) Мусульманское духовенство vs. власть в современном Афганистане: взгляд из Узбекистана. Мир и безопасность, Вестник РУДН. Серия: Международные отношения. Vol. 20. No. 4.
4. Маннонов А. (18.09.2018) “O‘zbekiston – Afg‘oniston” do‘stlik jamiyatining taqdimoti. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi. Retrieved from <http://interkomitet.uz/boshqa/o-zbekiston-afg-oniston-do-stlik-jamiyatining-taqdimoti/>
5. Маннонов А. (2022) Шарқшунослик масалалари. – Т.: Фан. – Б.111.
6. Бобокулов И. (2021) Афғонистон. Луғат – маълумотнома. – Т.: “Complex Print”. 248 б.
7. Акмалов Ш. (2002) Проблема афганского урегулирования в современных пакистано-иранских отношениях. Дисс. канд. пол. наук. – Т.: – С.171.
8. Акмалов Ш. (2014) Афганистан на перепутье: проблемы и перспективы. Lambert Academic Publishing. – С.44.
9. Акмалов Ш. (2023) Ўзбекистон-Афғонистон: ўтмишдан ҳозиргача. Т.: “Zamon poligraf” nashriyoti. – 176 б.

10. Туляганова Н. (2006) Афганский конфликт и его последствия в контексте становления новой системы безопасности в Центральной Азии: дисс. доктора политических наук. – Т.: – 329 с.
11. Туляганова Н. (2004) Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. – Т.: Фан. – С.83.
12. Бўронов С. (2021) Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёنларида Ўзбекистон геосиёсати. Т.: EFFECT-D. – Б.204.
13. Buranov S. (February 2020) The Durand line – key of the Afghan problem. International Journal of Scientific & Technology Research. Volume 9, Issue 02. Retrieved from <http://www.ijstr.org/final-print/feb2020/The-Durand-line-Key-of-the-Afghan-problem.pdf>
14. Bo‘ronov S. (2025) Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga “Tolibon” omilining ta’siri. – Т.: “Best-publish”. – 296 б.
15. Маккамбаев П. (2013) Военно-политическая ситуация в Афганистане и ее влияние на пограничную безопасность государств Центральной Азии. Ташкентский гос. юридический ин-т. – Т.: Адолат. – 544 с.
16. Рашидов Р. (2017) Афғонистонда давлатчилиқ масаласи: тарих ва ҳозирги замон. – Т.: “Навруз” нашриёти. – Б.264.
17. Rashidov R. (2018) Афғон давлатчилиғи шаклланишига халқаро ва минтақавий жараёнларнинг таъсири. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент. – 48 б.
18. Rashidov R. (2013) Геосиёсий омил – Афғонистондаги вазиятга таъсир этувчи омил сифатида. Шарқшунослик №2. – Б.136-141.
19. Abdurahmonov O. (2025) Hozirgi Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlarning o‘rni. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent. – 162 б.
20. Abdurahmonov O. (2024) Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlar. Toshkent.: “Donishmand ziyosi”. – 148 б.